

## SADI ISKANDARIYNING ADOLATLI HUKMDOR OBRAZI

Samariddinov Javohir G'ulomiddin o'g'li

Sam TUIT 23-03 guruh talabasi

Ilmiy rahbar: Samatov Xurshid

Telefon raqami+998904557971

Elektron pochta: [samariddinovj9@gmail.com](mailto:samariddinovj9@gmail.com)

### Annottatsiya:

Navoiy o'z asari avvalida, safdoshlaridan farqli o'laroq, tarixiylikka, ko'proq tarix kitoblariga tayanib ish ko'rganini yozadi. Navoiy bu o'rinda o'z asarida Iskandar haqidagi boblar izchilligining Qur'ondagi Zulqarnayn haqidagi oyatlarga hamda tarixiy shaxs Aleksandr faoliyatiga muvofiq kelishini nazarda tutgan. Dostonning „Saddi Iskandariy“ deb nomlanishida ham Qur'oni Karimning Navoiy uchun birlamchi manba bo'lganligi seziladi.

**Kalit so'zlar:** Rum davlati, Doro, adolatli podshoh Iskandar, Samarqandning bunyod etilishi, Iskandar va Doroning munosabatlari, xiroj

Navoiy talqinida Iskandar odil shoh, u dunyoni kufrdan, jaholatdan tozalab, butun dunyoda adolatni joriy etish, bashariy tartib qoidalarni katta olamdagi tartib qoidalarga muvofiqlashtirish maqsadida xalqlar ustiga yurishlar qilgan. Bu esa so'fiyona talqin bo'lib, dostondagi muqaddima boblar, Iskandar voqealari hikoya qilingan boblar hamda unga ilova boblarda ham shoirning tasavvufiy qarashlari ustuvorligini ko'rish mumkin.

**Iskandarning yoshligi.** Uzoq tarixdan beri Eronda Kayoniylar, Ashkoniylar hamda Sosoniylar deb atalgan sulolalar hukmdorlik qilib kelishgan. Eramizdan avvalgi 3-asrda shu mamlakatda Doro nomli shox ulkan Eron mamlakatini boshqarar qo'shni davlatlar unga buysunib, xar yili xiroj to'lab turishardi Rum davlati shoxi Faylaqus Iskandarni bir vayrona Ichida endigina tug'ulib yig'layotgani onasi esa vafot etganini ko'rib uni o'ziga o'g'il qilib oladi va har tomonlama parvarish qilib mamlakatni idora qilish salohiyatiga ega bo'lgan davlat arbobi sifatida yetishtirishni saroy ayonlariga topshiradi. Iskandar shunday qobilyatli ediki ustozi o'rgatganini 10 marta ko'pini tez urgana olardi, shu tariqa harbiy bilimlarni ham jaxd bilan o'rgana oldi. Xullas xarf sohasida hech kim yeta olmaydigan darajaga erishib el orasida



mashhur bo'ldi. Bu paytda Otasi ancha qarib edi. U o'limi yaqinligini sezib Iskandarga taxtni topshirdi. Iskandar otasini o'limini ko'rib jahonni tark etishiga oz qoldi, bu yulda uni otasining vasiyati to'xtatib turardi xolos:

Mulkinga begonani quymagin, xarimim aro hech bir nomunosib qadam quymasin, sendar murodim shu ediki qachon olam bilan xayrlashsam mening urnimni egallasang mening nomim va shuhratimga yelga sovrulmaydi- deb ta'kidlagan edi.

### **U otasining taxtiga utirdi.**

Iskandarga toj bilan taxt maqul kelmay bu tashvishi oldida g'oyatda malolatli edi. Ko'p o'ylab xalqni yig'ib bir anjuman tuzdi. Unga mamlakatning barcha obro'li donishmand kishilari keldi va Iskandar shunday so'z boshladi:

Ey mamlakatingiz Rum bo'lgan qavmim siz oliyjanob va boy bo'lsangiz ham Alloh oldida men kabi bir bandasiz, men siz kabi emasman, sizlarga qaraganda zaifroqman, otasiz g'am chekkan bir kimsasizman, Otam shox bo'lgan bo'lsa, bu yukni ko'tarishga quvvati yetarli edi, ajdodlarim ham shunday, men esam bag'oyat kuchsiz davlatni boshqarish ishiga tayyor bo'lmagan bir yigitman, axir sher tortgan yukni chumoliga tortish osonmi, shoxlik qilishga mening ixtiyorim xam yo'q. Undan voz kechsam ham uzrliman, men o'z fikrimni ayttim, siz endi o'zingizga boshqa shox toping, u zamon axlining munosibi shoxliq ishiga loyiq inson bo'lsin, har qanday dushmanga qarshi chora topa oladigan kezi kelganda qattiqqo'l ayni chog'da elparvar bo'lsin zuravonlarning birontasi ra'iyatga sitam qilsa bundaylarni qo'lini qirqtirsin qaroqchining qorasini ko'rgizmasin, xaq buyurgan hamma narsalarni bajarib rost so'zlovchi odamlarni qo'lini uzaytirsin- ochiq yuzli shox so'zini tugatgach odamlarning har tomondan qichqiriqlari eshitildi:

Ey odil shaxanshohimiz nega bizni faryod chektiryapsan elga adolatingdan yetar chog'dabunday zulmni ravo ko'rding shunday so'zni aytyapsanki bu xalq bag'rini qonga aylantiryapsan, sen bu el boshidin yiroq bo'lguncha ular jonlaridan yiroq bo'lsalar yaxshiroqku, ular bizning hammamizni barvaravar o'ldirishiga oz qoldi, falak quyoshi sening munavvar chehrang jahon sen kabi shoxni quyosh tal'a mushtariy nurli hukmdorni ko'rmagan sening vujudingda aqlga do'stlik ko'rinib turibdi. Biz bilamizki bu mamlakat ham senga kam, osmon avzoyidan ochiq va yashirin jahon senikidir degan hukm yozib quyilibdi. Yana boshqa hukmdorni farmon beruvchi qilmagin jahon axlini benavo qilmagin, bu baloga ne qilarimizni bilmay barimiz vatanni tashlab ketishni ixtiyor qilamiz, xar mamlakatdagadolikka tushsak bu mojaroni xudo sendan so'raydi.



Iskandar ularning bunday alomatlarini, el xolini ko'rib ko'ngli buzulib xalq iltimosini qabul qildi. Shox va aholi o'rtasida turli masalalar bo'yicha savol-javoblar bo'ldi, yarim kechada sajda uchun turib ko'zidan shodlik yoshlari oqib ibodat qildi. Sox sahardan kechgacha xalqning dardini tinglar, choralar kurar zolim axlini yerga past qilib, zulm axlini boshini yerga bosh quydirdi, zulm axlini yerga past qilgan shox yaxshi qiladi jafokor jafokorni boshini egik holda ko'radi, shu tarzda yarim kungacha el so'zlarini eshitib choralar ko'rdi. Hamma sohada adolat bilan ish ko'ra boshladi, yana narxlar bilan shug'ullanar ulchash asboblarini temirdan ishlab olib sotarlar urtasida xalolikni taminlaydigan choralarni ko'rdi. Bunday adolatdan Rum axli boyib ketdi:

Shaxiykim, adolatdur oning ishi.

King ermas anga shohlardan kishi.

U ko'p yillar davomida adolat havosini yaxshi bilib oldi, u shundayni qildiki hech kim bu jahonda bajargan emasdi, u qilgan ishlarini aytib tugatib bo'lmaydi, so'z boshlagan tugata ham olmaydi. Yaxshisi bo'lib o'tgan xodisalarni qisqartirib bayon qilganim ma'qul. Shu yuldan borsam maqsadimga yetaman.

Iskandarbuyuk sarkarda.

U dushmanlarni xalok qilib, brogan yerlarini dushmanlardan pok qildi. Yer-u dengizlarni o'rganish uchun qo'shin bilan yo'lga otlandi. Avval qasos olish uchun mag'rib zaminiga yurish qildi, keyin Doro bilan to'qnashdi, farang yurtini fath ayladi. U mamlakatni eli taslim bo'lgach Qirim bilan Andalus o'lkalari ustidan g'alaba qozondi. Misr mulkini fath etib taxtiga o'tirdi bu er havosini yoqtirib qolib Iskandariya shahrini bunyod etdi. Yer upmak maqsadida Makka tomon yo'l oldi. Xorazm mamlakatini ham qo'lga oldi. Shundan so'ng Iskandar Dashtiqipchoq, Saqsinu, Osu-rus, gurji mamlakatlarini egallab xalqlarni o'ziga qaram qilib oldi, so'ng hukmdor sharq tomon yo'l olib Movarounnarxni bosib oldi va bu yerda Samarqand shaxrini bunyod etdi. U ulug' insha'otlar qurdirdi va har xil ixtirolar qildilar.

### **Iskandar bilan Doroning munosabatlari.**

Doro jahon shohi bo'lgan vaqtda Fuylafus har yili boshqa hokimlar qatori tuxum ko'rinishida ming oltin tanga edi, Faylafus vafotidan so'ng bu vazifa Iskandarga o'z-o'zidan o'tgan edi, agar yuborilmasa Iskandarga Doroning dushman bo'lib qolishi aniq edi. Iskandarga maxsus navkar kelib oltinlarni talab qildi. Shoh uni



huzuriga taklif qildi. Iskandarning kurinishi navkarga vahm solib qo'ygani edi. Iskandar:

-Kelishgandan maqsadingni ayt, Doro ne aytgan bo'lsa to'la tukis aytaver.

-Malik Faylafus Rum axliga shox bo'lgan paytda xar yili ming oltin tuxumni xiroj qilib to'lashga vada bergan edi 3 yildan beri tulanmayapti agar bersalaringiz hisoblab olib ketay yo'qsa ne desangiz yetkazay

- Doroga mendan salom ayt, bugun ertalik uchun ranj chekmaginki, albatta ganj uzra ganj qo'ygaysan xolos, sen haddan ortiq xazinalar yig'ding. Tuxum quyadigan qushlar allaqachon uchib ketgan. Bekorga oramizga xusumat solmagin sipoh senda ko'p menda oz bo'lsa oz-u ko'pga berguvchi yolg'iz Allohdir-dedi Navkar bu so'zlarni Doroga yetkazdi. Doro buni eshitib g'azablandi.

Avvalo so'zamol bir odam topibo'zining so'zlarini aytib Iskandar tomon yo'l oldirdi. U Iskandarni ko'rib o'z so'zlari esidan chiqib ketdi va Doroning suzlarini o'qib berdi:

Otang tirikligida bu hizmatni o'z vaqtida bajarib keldi,

Qarzingni eslatib oldingga odam jo'natsak, bilimsizligingdan ko'p so'zlar aytibsan endi o'sha pullarni olibqoshimga kelasanda ostonamni o'pasan.

Iskandar:

Doro ajab so'zlarni aylabdi, shoxlarni o'ziga banda deb atabdi bu so'zlar kufrga teng. Yer yuzini dumaloq deb bilgan shox uni topga uxshatibdida. Iskandarga elchi olib kelgan kunjutni yerga tokib qushlarni olib kelgan edi ular barchasini yeb bitirdi. elchi buni hammasini Doroga yetkaz-dedi.

Doro bu so'zlarni eshitgach sipoh yig'di. Uning qo'shinining boshidan oxiri ko'rinmas edi.

Iskandar axvoldan xabar topib turar edi. Urushga bir kun qolgan edi. Iskandar tog' ustiga chiqdi. Iskandar sipohlarni kurib uylanib qoldi agar jang bo'lsa ular zichligidan bemalol urusha olmaymiz deb shularni uylab turgan edi. Bir tosh ustida ikkita jkabutar urushar edi biri jussasi zabardastroq biriniki zaifroq edi. Iskandar bu holatni ko'rgach o'zi va Doroga nisbat berdi. Shu payt nogoh havodan bir burgut pastlab kelib kattasini ilib ketdi. Bu ishdan Iskandar o'ziga dalda berib jonsiz badanga jon kirgandek sipohining oldiga bordi. Iskandar qo'rqayotganlarga umid bag'ishlab qollab-quvvatladi.



Jang maydonda Iskandar qo'shining olt tomonidan bir pahlovon oldinga chiqdi va jang o'rtasida to'xtab shunday dedi:

Burun men shox Doroga qul edim, Doro menga zulm qildi va men Iskandar yurtiga borib lutf-u karam ko'rdim, men haqini olib ishini bajarmaganimdan sharmandaman- deb janggi kirishdi va bir o'zi ko'plab sipohlarni yengdi.

Shu tarzda bir kun o'tdi. Shu tunda Iskandar tomonga xat keldi:

Doroning yaqin amaldorlaridan ikki kishi uning zulmidan tuyib o'lim xavfi ostida ekan, Doro bizni o'ldirishidan oldin biz uni o'ldiraylik deb yozilgan ekan. Iskandar bu xatni dushmanlarning makr-u firibi bo'lmasin deb javob bermadi. Ertasiga ertalab qotillar o'z vadasini bajarib Doroning ikki yonidan qilich urdi boshiga ham urdi. Doro qo'shinida notinchlik boshlandi. Iskandar uning oldiga borib u bilan xayrlashdi. Iskandar shu tarzda Doroning taxtiga o'tqazildi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Xamsa nasriy bayonidan foydalanildi.
2. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Saddi\\_Iskandariy](https://uz.wikipedia.org/wiki/Saddi_Iskandariy).